



DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI ASOSIDA QURILISHDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH

Axmedova Nilufar Shuxratovna

TAQU, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası v.b. professori, PhD

Hajiboyeva Kamola Baxtiyor qizi

TAQU, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası magistranti

Annatatsiya: Mazkur maqolada qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va yirik biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko'maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, qurilishda kichik va yirik biznes subyektlari rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Qurilish sohasidagi kichik va yirik biznes, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion texnologiyalar, qo'llab-quvvatlash mexanizmlar, qurilishda raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье разработаны механизмы создания благоприятных условий для динамичного развития малого и крупного бизнеса в строительной сфере, совершенствования деловой среды в регионах, содействия реализации новых бизнес-инициатив, стимулирующих экономический рост, а также поддержки выхода на внешние рыночные сегменты с конкурентоспособной продукцией. Кроме того, изучены механизмы государственной поддержки развития малых и крупных субъектов бизнеса в строительстве.

Ключевые слова: Малый и крупный бизнес в строительной сфере, организационно-экономический механизм, инновационные технологии, механизмы поддержки, цифровые технологии в строительстве.

Annotation: This article develops mechanisms aimed at creating favorable conditions for the rapid development of small and large businesses in the construction sector, improving the business environment in the regions, supporting the implementation of new business initiatives that stimulate economic growth, and facilitating entry into foreign market segments with competitive products. In addition, the study examines state support mechanisms for the development of small and large business entities in



the construction industry.

Keywords: *Small and large businesses in the construction sector, organizational and economic mechanism, innovative technologies, support mechanisms, digital technologies in construction.*

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo‘llab-quvvatlashning “uzluksiz zanjirini” yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi bo‘g‘ini bo‘lgan o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash instrumentlari yetarlicha yaratilmasdan qolmoqda.

Moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratishga, xususan tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortmoqda.

Biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimida asosiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lgan Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining amaldagi tashkiliy-huquqiy shakli tadbirkorlik subyektlariga yetarlicha yordam ko‘rsatish, yangi xizmat turlarini joriy etish. Shuningdek, joriy yilning 18-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda Jamg‘arma faoliyatini jahon tajribasi asosida tashkil etish va tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish bo‘yicha kompleks tizimni yaratish haqida nutq so‘zladi.

Tadqiqot maqsadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘rgangan holda qurilishda kichik va yirik biznes subyektlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning nazariy masalalari chet ellik olimlardan A.Smit, J.B.Sey, R.Kantilon, A.Marshall, Y.Shumpeter, J.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, F.Xayek, M.G.Lapusta, G.N.Vlasov, A.M.Jeltov va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan. O‘zbekistonda KBXTni rivojlantirishning umumnazariy masalalari Y.Abdullayev, M.Boltabayev, U.G‘ofurov, A.Samadov, A.Yusupov, B.Xodiyev, T.Do‘stjanov, S.Salayev, N.Murodova, Q.Muftaydinov, A.Vahobov,



R.Xodjayev, B.Sanaqulova, A.Qulmatov U.Boymatova, I.Ibragimov, D.Sobirjonova, J.O‘rmonov⁴ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Respublikamizda qurilish tarmog‘ini rivojlantirish va boshqarish, sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning nazariy-uslubiy, amaliy masalalari olimlarimizdan R.Nurimbetov, A.Abdullayev, N.Axmedova, R.Gimush, L.Nosirova, M.Ziyayev, D.Xairova, I.Davletov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritilgan. Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarda aynan qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan masalalar tizimli ravishda yoritilmagan. Bu esa ushbu dissertatsiya ishidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda kichik va yirik biznes subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholining turmush tarzi yaxshilanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrda “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–193-son farmoni, 2025-yil 19-martda “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–50-son farmoni doirasida Kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash maqsad qilingan.

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlari va shartlari

1-Jadval.

I. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlari

T/r	Qo‘llab-quvvatlash turi	Ishtirokchilar	Foydalanish muddatlari	Alohida shartlar
1. Ustav kapitalga ulush kiritish				
1.	Loyiha qiymatining 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foizi	Quyidagi shartlarga javob beradigan xizmat	Kiritilgan ulush yetti yil davomida bozor	Qo‘llab-quvvatlash taqdim etiladigan loyiha ochiq tanlov o‘tkazish



	yoki 3 milliard soʻmdan ortiq boʻlmagan miqdorda koʻchmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa aktivlar koʻrinishida ulush kiritish.	koʻrsatish, mahsulot ishlab chiqarish va yetishtirish boʻyicha loyihalarni amalga oshiruvchi oʻrta tadbirkorlik subyektlari: a) 24 oydan ortiq faoliyat koʻrsatayotgan; b) kamida 50 nafar kishini doimiy ish bilan taʼminlagan.	qiymatida realizatsiya qilinadi.	orqali tanlab olinadi. Kompaniya ulush kiritilgan loyihalar boʻyicha muntazam ravishda monitoring olib boradi va konsultativ yordam koʻrsatadi, shuningdek, ushbu loyihalar haqida har oy oʻzining rasmiy veb-saytida maʼlumot joylashtirib boradi. Mazkur qoʻllab-quvvatlash turidan foydalanayotgan tadbirkorlik subyektiga xizmatlar ipotekasi hamda kafillik yordami taqdim etilmaydi. Loyihalar yoʻnalishlari Kompaniya Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilanadi.
2. Xizmatlar ipotekasi				
2.	Koʻchmas mulk va asbob-uskunalarining 70 foizi, biroq 10 milliard soʻmdan ortiq boʻlmagan mulk sotib olish va quyidagi shartlarning biri asosida	Quyidagi shartlarga javob beradigan xizmat koʻrsatish, mahsulot ishlab chiqarish va yetishtirish boʻyicha loyihalarni amalga oshiruvchi oʻrta	Yetti yil muddatgacha taqdim etiladi.	Qoʻllab-quvvatlash taqdim etiladigan loyiha ochiq tanlov oʻtkazish orqali tanlab olinadi. Mazkur qoʻllab-quvvatlash turidan foydalanayotgan tadbirkorlik subyektiga “ulush kiritish” yordami taqdim etilmaydi. Yordam koʻrsatiladigan



	tashabbuskorga berish: a) qarzdorlik qoldig'iga Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada yillik foiz hisoblash; b) bo'lib-bo'lib to'lash.	tadbirkorlik subyektlari: a) 24 oydan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan; b) kamida 50 nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan.		loyihalar yo'nalishlari Kompaniya Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilanadi.
3. Kompaniya resurslari hisobidan kredit (lizing) ajratish				
3.	1,5 milliard so'mgacha bo'lgan miqdorda milliy va xorijiy valyutada Kompaniya stavkasi hamda tijorat bankining marjasi qo'shilgan stavkada kredit (lizing) ajratish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari.	Tijorat banklari tomonidan kredit (lizing) yetti yil muddatgacha ajratiladi.	Kompaniya tomonidan: milliy valyutada ajratiladigan kredit (lizing)lar bo'yicha resurs Markaziy bankning asosiy stavkasidan past bo'lmagan stavkada; xorijiy valyutada ajratiladigan kredit (lizing)lar bo'yicha resurs Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan stavkada joylashtiriladi.
4.	5 milliard so'mgacha bo'lgan miqdorda milliy va xorijiy valyutada Kompaniya stavkasi hamda tijorat bankining marjasi qo'shilgan stavkada kredit (lizing) ajratish.	O'rta tadbirkorlik subyektlari.		
5.	500 million so'mgacha milliy va xorijiy valyutada	Kichik tadbirkorlik subyektlari.	Lizing kompaniyalari tomonidan lizing	Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tashabbuskorning



	Kompaniya stavkasi hamda lizing kompaniyalarining marjasi qo'shilgan stavkada lizing ajratish.		besht yil muddatgacha ajratiladi.	ko'rsatkichlari hamda loyiha yo'nalishlaridan kelib chiqib ajratiladigan resurs miqdori va shartlari belgilana?i. Kompaniya tomonidan lizing kompaniyalari va mikromoliya tashkilotlariga joylashtirilgan resurs hisobiga ajratiladigan kredit (lizing)lar uchun Kompaniyaning boshqa moliyaviy yordami ko'rsatilmaydi.
6.	1 milliard so'ngacha milliy va xorijiy valyutada Kompaniya stavkasi hamda lizing kompaniyalarining marjasi qo'shilgan stavkada lizing ajratish.	O'rta tadbirkorlik subyektlari.		
7.	300 million so'ngacha milliy va xorijiy valyutada Kompaniya stavkasi hamda mikromoliya tashkilotlarining marjasi qo'shilgan stavkada kredit (lizing) ajratish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar.	Mikromoliya tashkilotlari tomonidan kredit (lizing) uch yil muddatgacha ajratiladi.	
4. Kafillik taqdim etish				
8.	2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari.	Tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va	Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davridan kelib chiqib kafillik yordami miqdori belgilanadi.



9.	5 milliard soʻmdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Oʻrta tadbirkorlik subyektlari.	akkreditivlar muddatiga mos davrga.	
		“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchisi boʻlgan tadbirkorlik subyektlari.	Tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit muddatiga mos davrga.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son Farmoniga muvofiq miqdorlarda taqdim etiladi.
10.	800 million soʻmdan oshmagan miqdorda, biroq lizingning 30 foizigacha (30 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari.	Lizing kompaniyalari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan lizinglar muddatiga mos davrga.	Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davridan kelib chiqib kafillik yordami miqdori belgilanadi.
11.	1,5 milliard soʻmdan oshmagan miqdorda, biroq lizingning 30 foizigacha (30 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Oʻrta tadbirkorlik subyektlari.		
12.	100 million soʻmdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 30 foizigacha (30 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Kichik tadbirkorlik subyektlari hamda oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar.	Mikromoliya tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar muddatiga mos davrga.	



13.	5 milliard soʻmdan oshmagan miqdorda, biroq kreditning 75 foizigacha (75 foizi ham kiradi) kafillik taqdim etish.	Qoraqalpogʻiston Respublikasida roʻyxatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari.	Tijorat banklari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit muddatiga mos davrga.	Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davridan kelib chiqib kafillik yordami miqdori belgilanadi va kafillik 2025-yil 1-yanvarga qadar taqdim etiladi.
5. Tijorat banklari kredit (lizing)lari boʻyicha kompensatsiya taqdim etish				
14.	3 milliard soʻmgacha ajratiladigan kreditlar boʻyicha foiz xarajatlarini qoplash.	Faoliyat davri uch yilgacha boʻlgan kichik tadbirkorlik subyektlari.	3 yildan ortiq boʻlmagan muddatga kompensatsiya "1+2" tamoyili asosida avval	Kompensatsiya yillik Markaziy bank asosiy stavkasining 4 foizlik punktidan yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan
15.	5 milliard soʻmgacha ajratiladigan kreditlar boʻyicha foiz xarajatlarini qoplash.	Tashkil etilgan davridan qatʼi nazar kichik tadbirkorlik subyektlari.	kredit (lizing)ning dastlabki yiliga taqdim etiladi, keyingi ikki yil davomida quyidagilarga asosan davom ettiriladi: yangi ish oʻrinlarini yaratish rejasi bajarilishi; yillik realizatsiya	stavkada milliy valyutadagi kreditlarga taqdim etiladi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga tashkil etilgan davridan qatʼi nazar kompensatsiya taqdim etiladigan yoʻnalishlar Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. Kompensatsiya hudud toifasidan kelib chiqib taqdim etiladi.
16.	10 milliard soʻmgacha ajratiladigan kreditlar (lizinglar) boʻyicha foiz	Fargʻona viloyati Soʻx tumanida roʻyxatga olingan va faoliyat	qilingan mahsulot (xizmat) boʻyicha tushumning	Kompensatsiya Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy



Learning and Sustainable Innovation

stavkasining 10 foizlik punktidan yuqori qismi bo'yicha xarajatlarini qoplash.	yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari.	kamida 15 foizga oshishi. O'rnatilgan bazaviy me'yorlar bajarilmagan taqdirda o'tgan davr uchun kompensatsiya to'lovi keyingi yilga o'tkaziladi.	valyutadagi kreditlarga 2025-yil 1-yanvarga qadar taqdim etiladi.
--	---	--	---

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etilmaydigan moliyaviy yordamlar ro'yxati:

- ilgari olingan kredit (lizing)larni yoki boshqa har qanday qarzni qaytarish;
- nobank kredit tashkilotlari, lizing va sug'urta kompaniyalari faoliyatini tashkil etish;
- savdo, umumiy ovqatlanish hamda avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish (bundan eksportoldi moliyalashtirish, “yashil” texnologiyalarni sotib olish va o'rnatish mustasno);
- aylanma mablag'larni shakllantirish (eksportoldi moliyalashtirish, turizm va asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaxirasini yaratish bundan mustasno);
- yengil va ilgari foydalanishda bo'lgan yuk avtotransport vositalari sotib olish va ularni ta'mirlash (chet eldan olib kelinadigan yuk avtotransport vositalaridan tashqari);
- bino-inshootlarni sotib olish.

2025 — 2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasi.

2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, kambag'allik darajasini 5 foizdan pastga tushirish hamda O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish bo'yicha barcha

Bugungi kunda 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar va 905,8 ming kichik va o'rta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu sohada 10,5 million aholi band (jami band aholining 74 foizi).

2024-yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizi, sanoatning 32,4 foizi, eksportning 33,3 foizi kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Strategiyaning asosiy maqsadi — yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali kichik va oʻrta biznes uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish hamda sohada raqobatbardoshlikni oshirish.

Bunda 2030-yilga qadar kichik va oʻrta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish, sohadagi eksport hajmini 20 milliard AQSH dollaridan oshirish hamda 2 milliondan ortiq yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar ishlab chiqildi.

Shu maqsadda quyidagilar Strategiyaning ustuvor yoʻnalishlari etib belgilanmoqda:

- (a) moliyaviy qoʻllab-quvvatlash choralari kengaytirish;
- (b) biznes uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish;
- (v) raqobat muhitini yaxshilash va tashqi bozorlarga chiqishni ragʻbatlantirish;
- (g) raqamlashtirish, sunʼiy intellekt va innovatsiyalarni joriy etish;
- (d) kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash choralari samaradorligini oshirish;
- (e) tadbirkorlik koʻnikmalariga oʻqitish va biznes uchun malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- (j) masʼuliyatli biznes amaliyotini joriy qilish.

Qurilish sektori iqtisodiyotning koʻplab tarmoqlari bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, unda kichik va yirik biznesning oʻziga xos ahamiyati mavjud.

Kichik biznes subyektlari quyidagi yoʻnalishlarda faoliyat yuritadi:

- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- taʼmirlash-qurilish va kichik montaj ishlari;
- loyihalash xizmatlari;
- transport va logistika koʻmaklari.

Ularning moslashuvchanligi, bozorga tez kirish qobiliyati hamda mehnat bandligini oshirishdagi roli kichik biznesni iqtisodiy oʻsishning muhim omiliga aylantiradi.

Yirik qurilish kompaniyalari:

- infratuzilmaviy mega loyihalar;
- sanoat obyektlari;
- koʻp qavatli uy-joy majmualari;
- transport kommunikatsiyalari qurilishi

kabi loyihalarda muhim rol oʻynaydi. Ularning katta investitsiyalar jalb etish imkoniyati iqtisodiyotga multiplikativ taʼsir koʻrsatadi.

Soʻnggi maʼlumotlarga koʻra, Toshkent shahrida koʻchmas mulk narxlari va ijaraviy



daromadlar quyidagicha o'zgarganini sezish mumkin.

2024-yil yanvar holatiga ko'ra, Toshkent shahrida ko'p qavatli uylarning o'rtacha ijara narxi \$339 ni tashkil etgan. Eng past narx Sergeli va Olmazor tumanlarida, eng yuqori narx esa Mirobod va Yakkasaroy tumanlarida qayd etilgan. 2021-yilning birinchi choragida, O'zbekiston bo'yicha ko'chmas mulk bozorida narxlar o'sishi kuzatilgan. Barcha hududlarda narxlar qimmatlashgan, faqat Andijon viloyatida choraklar bo'yicha 5,42 foiz kamayish qayd etilgan.

2025-yilning mart oyida o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari 2024-yilning mos davridagiga nisbatan sezilarli darajada quyida-gicha arzonlashdi:

1 xonali uylar \$296 (2024-yilga (\$356) nisbatan -16,6 foiz);

2 xonali uylar \$379 (2024-yilga (\$396) nisbatan -4,6 foiz);

3 xonali uylar: \$454 (2024-yilga (\$467) nisbatan -2,9 foiz);

4 xonali uylar: \$521 (2024-yilga (\$538) nisbatan -4,7 foiz).

Shunday nisbatda arzonlashgan.

Toshkent shahrida ko'chmas mulk narxlari va ijaraviy daromadlarning o'sishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun bir nechta imkoniyatlarni yaratadi. Ijara orqali daromad olish ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish orqali barqaror daromad manbai yaratadi. Kapital qiymatining oshishi ko'chmas mulk narxlarining o'sishi bilan aktivlarning qiymati ham oshadi, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Diversifikatsiya ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanish biznes faoliyatini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Toshkent shahrida ko'chmas mulk narxlari va ijaraviy daromadlar o'sishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanish orqali kichik biznes subyektlari barqaror daromad manbai yaratishi mumkin. Ko'chmas mulk narxlarining o'sishi bilan aktivlarning qiymati ham oshadi, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Qurilishda kichik va yirik biznes subyektlarini rivojlantirishda mavjud muammolar:

- Imtiyozli kreditlar bo'yicha ariza jarayonlarining murakkabligi.
- Qurilish materiallari narxining barqaror emasligi.
- Hududlar kesimida tadbirkorlarga teng sharoitlarning yaratilmaganligi.
- Lizing mexanizmlaridan foydalanish darajasining pastligi.

Quyidagi muammolardan kelib chiqqan holda quydagilarni taklif qilaman:

- kredit ajratish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish;



- mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun qo'shimcha soliq preferensiyalarini taqdim etish;
- hududlarda biznes-inkubatorlar tarmog'ini kengaytirish;
- lizing kompaniyalariga davlat kafilligi ulushini oshirish.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan yaratilayotgan moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznesning moslashuvchanligini mustahkamlab, ularga texnik modernizatsiya, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini bermoqda. Yirik biznes uchun esa davlat kafilliklari va uzoq muddatli resurslardan foydalanish infratuzilmaviy loyihalar va ko'p qavatli uy-joy majmualari qurilishiga qulay sharoit yaratib, iqtisodiyotga multiplikativ ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanish jarayonida ayrim muammolar — hujjatlashtirish jarayonlarining murakkabligi, hududlar o'rtasida teng sharoitning mavjud emasligi va lizing imkoniyatlarining cheklanganligi — yuzaga chiqmoqda. Bularni bartaraf etish uchun kredit jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, hududiy preferensiyalarni kengaytirish va lizing tizimini yanada rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, davlat tomonidan yo'lga qo'yilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari qurilish sohasining barqaror rivojlanishida, biznes subyektlarining investitsion salohiyatini oshirishda va iqtisodiyotning umumiy modernizatsiya jarayonlarida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusida mazkur mexanizmlarni takomillashtirish, shaffof tashkiliy jarayonlarni yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish qurilish biznesining raqobatbardoshligini yanada kuchaytirishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Qurilish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi iqtisodiy faollikni oshirishning muhim omilidir. Kichik va yirik biznes subyektlari uchun yaratilayotgan imtiyozlar nafaqat ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini ham oshiradi. Kelgusida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish, jarayonlarni soddalashtirish va raqamlashtirish qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-noyabrda "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6658633>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martda "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>
3. O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5307951>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" Taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/docs/-6600413>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/>
6. Axmedova N.Sh. Asadova M.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiyaning o'rnini. // Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy Anjuman. 2023 yil.
7. Axmedova N.Sh. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi rivojlanish holati// "Международная научно-практическая конференция дистанционные возможности и достижения науки". 2021 yil.
8. Boltaboyev.M, Qosimova.M, Ergashxodjayeva.Sh, G'oyibnazarov.B, Samadov.A, Otajonov.Sh "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Darslik. Toshkent - Iqtisodiyot 2011y
9. Xodiyev.B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Toshkent.: TDIU, 2010.
10. Xalmatjanova G.D. Qoraboev. A.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy - ijtimoiy va huquqiy asoslari// Farg'ona davlat universiteti "Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnal. 2025 yil.